

IJTIMOYIY – SIYOSIY TERMINLAR TUSHUNCHASI VA TALQINI**Sayfullayev Najibullo Hayriddin o‘g‘li**

Termiz davlat pedagogika instituti

najibullo.sayfullayev@mail.ru

Annotatsiya. Ushbu maqolada terminologiya sohasidagi dolzarb yo‘nalishlardan biri bo‘lgan ijtimoiy-siyosiy terminlar haqida fikr yuritiladi. Ijtimoiy-siyosiy terminlarga berilgan ta’riflar tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: ijtimoiy, siyosiy, terminologik, terminologiya, terminlar, sof o‘zbek(turkiy)cha ijtimoiy-siyosiy terminlar.

Abstract. This article discusses socio-political terms, which are one of the current directions in the field of terminology. Definitions of socio-political terms are analyzed.

Key words: social, political, terminological, terminology, terms, purely Uzbek (Turkish) socio-political terms.

Ijtimoiy-siyosiy termin tushunchasiga ta’rif berishdan avval ushbu tushunchadagi har bir so‘zning ta’rifini keltirishni joiz deb topdik.

IJTIMOYIY [a. jamoa, jamiyatga oid]

1 Inson va jamiyat hayotiga oid. *Ijtimoiy tuzum. Ijtimoiy taraqqiyot. Ijtimoiy ishlab chiqarish. Ijtimoiy munosabatlar.*

2 Jamiyatdagi tabaqa, sinf va sh.k. ga mansublikni belgilovchi. *Ijtimoiy guruhlar. Aholining ijtimoiy guruhlari. Ijtimoiy kelib chiqish.*

3 Jamiyat bilan bog‘langan, jamiyatga, jamoatchilikka oid. *Ijtimoiy harakat. Ijtimoiy fikrning rivoji. Ijtimoiy mehnat.*

4 Jamiyatning, jamoatchilikning ehtiyojlari uchun ixtiyoriy (evazsiz) xizmat etuvchi. *Ijtimoiy tashkilot. Ijtimoiy ta’minot. Ijtimoiy topshiriq. Ijtimoiy ishlar.*

5 Jamoatchilikka tegishli, jamoatchilik o‘rtasidagi. *Ijtimoiy mulk. Ijtimoiy munosabatlar.*¹

SIYOSIY [a. siyosatga, diplomatiyaga doir] Siyosatga oid, siyosat bilan bog‘liq bo‘lgan, siyosat sohasidagi. *Siyosiy masala. Siyosiy partiya. Siyosiy sharhlovchi.*

¹ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Беш жилдлик. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2-жилд, 2007.

2 Davlatga, davlatchilikka va fuqarolik haq-huquqiga oid. *Siyosiy tuzum. Siyosiy huquq.*¹

Ushbu keltirilgan izohlarga tayangan holda ijtimoiy-siyosiy terminga quyidagicha ta'rif berish mumkin: "Ijtimoiy-siyosiy termin lug'aviy sistemaning jamiyat siyosiy hayoti yoki siyosiy tizimiga bevosita aloqador bo'lgan hodisalar, jarayonlar va munosabatlarni ifodalovchi, ayni vaqtda, ijtimoiy-tarixiy, iqtisodiy, madaniy, diniy, ma'naviy-ma'rifiy kabi omillar asosida shakllanuvchi o'zgaruvchan qatlamidir".

TERMINOLOGIK Terminologiyaga, terminlarga oid. *Terminologik lug'at. So'zning terminologik ma'nosi. Determinlashish — terminologik sistemadagi so'zning adabiy tilga to'la o'zlashishidir. "O'TA"*².

TERMINOLOGIYA [lot. terminus - chegara + yun. logos — fan. ta'limot] 1 Fan, texnika, kasb-hunarning biror sohasida qo'llanadigan terminlar majmui. *Texnika terminologiyasi. Harbiy terminologiya. Ilmiy terminologiya. O'zbek tili terminologiyasi. Qori aka fanlar ichida avvalo matematikani sevib o'rganadi va uning o'zbekcha terminologiyasini ishlab chiqadi. M.O'rozboev, Mo'jizalar olami. 2 Tilshunoslikning terminlarni o'rganish, tartibga solish bilan shug'ullanuvchi sohasi. Terminologiya mutaxassisi. Terminologiya bo'limi. Seminar rus va o'zbek tillarining fonetikasini qiyosiy o'rganish, orfoepiya, terminologiya va leksikologiya masalalariga alohida e'tibor beradi. "O'TA"*³.

Termin so'zini turlicha tushunish mavjud. Chunonchi, mantiqshunos(logik)lar uchun termin-aniq obyektga tegishli tavsif (yoki tavsiflar) yig'indisini nazarda tutuvchi va unda tatbiq etiluvchi so'z hisoblanadi. Har qanday tildagi istalgan so'z termin bo'lishi mumkin.

Fan va texnikada termin - sun'iy o'ylab topilgan yoki tabiiy tildan olingan maxsus so'z sanaladi. Bunday so'zlarning qo'llanish sohasi u yoki bu ilmiy maktab vakillari tomonidan aniqlashtiriladi yoxud chegaralanadi. Umumtil terminlaridan farqli o'laroq, ilm-fan, texnikaga xos terminlar iyerarxik birliklar sifatida terminologik sistemalarga birlashadi, ular o'z ma'nolariga faqat ayni sistema ichida erishadi, bu sistemada ularga mantiqiy (tushunchaga oid) terminologik maydon mos keladi.

Termin va terminologik leksika tushunchalarini bir-biridan farqlash zarur.

Terminlarning qo'llanish, tarqalish ko'lami muayyan terminologik sistema bilan cheklangan bo'lib, ular insonning faoliyati doirasidagi aniq uslubda harakat qiladi, voqelanadi.

¹ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Беш жилдлик. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 3-жилд, 2007.

² Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Беш жилдлик. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 4 жилд, 2008.

³ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Беш жилдлик. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 4 жилд, 2008.

Terminologik leksika o'z tarkibiga tor mutaxassislik doirasidan ommaviy muloqot doirasiga ko'chgan noprofessional nutqiy kontekstda keng qo'llanadigan so'z va so'z birikmalarini qamrab oladi.

Umumadabiy til doirasiga o'tgan termin o'z terminologiyasi, terminologik maydoni va sistemasidan yiroqlashadi, terminlik xarakteristikasidan ajralib qoladi.

“Termin ta'rifi xususida ilmiy adabiyotlarda ko'pdan-ko'p mulohazalar bildirilgan. Deyarli barcha ta'riflarda termin maxsus ilmiy-texnikaviy tushunchani ifodalovchi so'z yoki so'z birikmasi tarzida tavsiflanadi”¹.

O.Vinokurning fikricha², termin - doimo aniq va ravshan. Terminlar tizimi tilni ongli shakllantiriladi. Zero, termin o'z-o'zidan, stixiyali tarzda paydo bo'lmaydi, balki zarurligi, jamiyatda unga ehtiyojning mavjudligi tufayli yaratiladi.

A.S.Gerdning mulohazasiga ko'ra termin ilm-fan taraqqiyotining muayyan bosqichida mavjud tushunchalarning asosiy xususiyatlarini aniq va to'raligicha aks ettiruvchi maxsus terminologik ma'noga ega tabiiy va sun'iy til birligi, ya'ni so'z yoki so'z birikmasidir³.

O.S.Axmanovanning ta'kidlashicha, “terminologiya qaysidir fan o'z taraqqiyotining oliy darajasiga erishgandagina yuzaga chiqadi, ya'ni termin muayyan tushuncha aniq ilmiy ifoda kasb etgandan so'ng tan olinadi. Terminni noterminidan farqlashning muhim vositasi uni ilmiy asosda ta'riflashning mumkin emasligidadir. V.G.Gak terminning ta'rifini berish qatori, uning mohiyatini ochadi va terminning biror bir til so'z boyligidagi o'rnini belgilaydi. U ilmiy ishlarda terminga lug'aviy birliklarning alohida turi tarzida qaralishiga e'tiroz bildiradi hamda termin-funksiya, leksik birliklar qo'llanishining bir qo'rinishi, degan g'oyani ilgari suradi”⁴.

Terminologiya turli-tuman maktab, ilmiy yo'nalish va aniq fikrlarga xos ketegorial apparatni ifodalovchi, terminlar sistemasiga birlashgan maxsus tushunchalar yig'indisi, majmui tarzida qaraladi.

Hozirgi tilshunoslikda yangi terminlarning paydo bo'lishi, ularning hayotga tatbiq qilinishidagi to'siqlar, yasaliş prinsiplari va usullari xususida turfa g'oyalar, nuqtai nazarlar ko'zga tashlanadi.

Termin so'zi interpretatsiyasining substansional, funksional, dervatsion, semantik va pragmatik prinsiplari e'tirof etilmoqda.

¹ Dadaboyev H. O'zbek terminologiyasi. –Toshkent: 2019.

² Винокур Г.О. О некоторых явлениях словообразования в русской технической терминологии. Труды МИФЛИ. Т.%. Сборник статей по языкознанию. - М., 1961.

³ Герд А.С. Значение термина и научное знание//Научно-техническая информация. Серия 2.-М.,1991.

⁴ Dadaboyev H. O'zbek terminologiyasi. –Toshkent: 2019.

Substansional nuqtai nazar vakillariga ko‘ra termin maxsus so‘z yoki so‘z birikmasi bo‘lib, boshqa nominativ birliklarga nisbatan bir ma‘noliligi, aniqligi, sistemliligi, kontekstdan xoliligi va emotsional jihatdan neytralligi bilan ajralib turadi.

“Funksional nuqtai nazarga binoan terminlar maxsus so‘z emas, balki maxsus funksiyaga ega so‘zlardir; terminning o‘rni(rolini)ni istalgan so‘z bosishi, o‘ynashi mumkin.

Derivatsion nuqtai nazar terminlarning yasash jarayonlari bilan chambarchas bog‘langan. Ushbu g‘oya tarafdorlarining fikricha, termin nafaqat oddiy so‘zning varianti, shuningdek, yangi, o‘ziga xos spetsifik belgilarga ega maxsus yasalgan birlik sifatida ham tan olinadi. Yangi terminlarning yuzaga chiqish sabablari yangi realiyalarni ifodalash ehtiyoji bilan baholanadi.

Terminga muayyan talablar qo‘yiladi, ushbu jihat uni umumtil va lahja hamda shevalardagi oddiy so‘zlardan ajratib turadi”¹.

“Umuman, tilshunoslikda ijtimoiy-siyosiy terminlarning tushunchaviy bahosi yetarli o‘rganilmagan. Bu boradagi tadqiqotlar asosan ijtimoiy-siyosiy terminlar semantikasidagi mafkuraviy konnotatsiya masalalari bilan cheklanib qolgan. Xullas, ijtimoiy-siyosiy holat yoxud subyektga nisbatan til egasining ijtimoiy munosabatidan kelib chiqib, ijtimoiy manfaat hamda me‘yorlarga mos kelish yoki kelmasligiga ko‘ra tushuncha “qobig‘i”da ijobiy yoki salbiy baho bo‘lgan ijtimoiy-siyosiy terminlar shakllanishi mumkin”².

Ona tilimizga davlat tili maqomi berilishi o‘zbek xalqi tarixida unutilmas bir voqea bo‘lish barobarida mustaqillikdan keyin uning mavqei yanada oshdi. Mana o‘ttiz uch yildirki ona tilimizning qo‘llanish doirasi kengayib, ilmiy va rasmiy til sifatida ishlatilmoqda hamda ma‘lum bir me‘yorga solinmoqda. O‘zbek tilshunosligida bu borada ko‘plab ishlar qilindi. Chunonchi, terminologiya bo‘yicha bir qator monografik tadqiqotlar yaratildi. Umumiy o‘rta ta‘lim, o‘rta maxsus hamda oliy o‘quv yurtlari o‘quvchi va talabalari uchun ona tili darsliklari yozildi. Sakson mingdan ortiq so‘zni o‘z ichiga olgan besh jildlik “O‘zbek tilining izohli lug‘ati” nashr etildi. Tilimizda mavjud bo‘lgan chet (ruscha-baynalmilal) so‘z va terminlarning o‘rniga o‘zbekcha muqobillari bilan almashtirish ishlari ham sinchkovlik bilan olib borilmoqda. Sho‘rolar davrida eskirgan deb iste‘moldan chiqarilgan ba‘zi so‘z va terminlar qaytadan muomalaga kiritilmoqda. Bu sohada tilshunos olimlarimizdan tortib oddiy

¹ Dadaboyev H. O‘zbek terminologiyasi. –Toshkent: 2019

² Шаропова Р. Ижтимоий-сиёсий терминларда тушунчавий баҳонинг ифодаланиши. //Культурология, искусствоведение и филология: современные взгляды и научные исследования. Сборник статей по материалам XXII международной научно-практической конференции. Москва. 2019

fuqarolargacha faol qatnashmoqdalar. Mazkur xayrli ishni amalga oshirishda matbuot, radio va televideniye xodimlarining baholi qudrat olib borayotgan ishlarini ham qayd etish lozim. Aslida, tilda soʻzlarning qoʻllanishi erkin holda boʻladi, majburiylikni xalq qabul qilolmaydi. Singib keta bilmagan soʻzlar sekinlik bilan muomaladan chiqadi. Jamiyatdagi oʻzgarishlar birinchi oʻrinda tilda aks etgani bois, tilda ularni ifodalash uchun ehtiyoj tugʻiladi. Muqobili izlab topilmasa, u haqida qaygʻurilmasa, yaʼni nazorat qilinmasa, terminning maʼno-mohiyatini tushunishda anglashilmovchilik va yanglishliklar yuz berishi mumkin. Terminologiya sohasida baʼzi bir chalkashliklarga ham yoʻl qoʻyilayotganini qayd etish lozim. Oʻzbek tiliga oʻzga tillardan kirib kelgan soʻzlarning muqobilini topishda shoshmasdan ish tutish, ularning oʻrniga muqobil sifatida taklif etilayotgan arabcha-forscha soʻzlarni qabul qilishni ham imkoni boricha jiddiy oʻylab koʻrish zarur deb hisoblaymiz. Toʻgʻri, ota-bobolarimizdan qolgan maʼnaviy-maʼrifiy qadriyatlarning koʻp qismi arab va fors tillarida yoki eski oʻzbek yozuvida yozilgan. Shu bois ularni oʻrganish ham zarur. Ammo ona tilimizda muqobili boʻlgan oʻzbekcha (turkiycha) soʻz va terminlar oʻrnida chet tillariga tegishli variantlarni ishlatish unchalik toʻgʻri boʻlmasa kerak. Baʼzi ziyolilarning adabiy tilda mavjud yoki avval qabul qilingan arabcha va forscha soʻz hamda terminlarni isteʼmoldan chiqarishning iloji yoʻq degan roʻkach keltirishlarini ham oqlash nooʻrin. Albatta, bularni inkor qilmagan holda baynalmilal soʻz va terminlarning muqobili mavjud boʻlmaganlarini qoldirib, qolganlarini imkoni boricha oʻzbekchallashtirish yoʻllarini qidirishimiz kerak.

Tilshunoslikda ijtimoiy-siyosiy terminologiya boʻyicha ham turli xil qarashlar mavjud. Bu qarashlarni 3 guruhga ajratish mumkin:

- Tasviriy-sinxronik yoʻnalishdagi ijtimoiy-siyosiy terminlar;
- Tarixiy-diaxronik yoʻnalishdagi ijtimoiy-siyosiy terminlar;
- Qiyosiy-tipologik yoʻnalishdagi ijtimoiy-siyosiy terminlar kabi.

Bir necha tadqiqotlar birinchi yoʻnalishda bajarilgan. Maʼlumki, ijtimoiy-siyosiy leksemasini tarixiy-diaxronik yoʻnalishda oʻrganilishi tilshunoslarimiz nazaridan chetga qolib kelmoqda. Ushbu sohadagi maxsus ishlar deyarli yoʻq darajada. Mavjud ishlarda esa, ayrim soʻzlarning tarixini talqin qilish bilan chegaralangan, xolos. Tadqiqotlarni tahlil qilish jarayonida shu narsa maʼlum boʻldiki, ijtimoiy-siyosiy leksika hamda ijtimoiy va siyosiy terminlar boʻyicha olimlarning fikr-mulohazalarida birlik yoʻq, bu masalada aniq bir xulosaga kelinmagan.

Hozirgi oʻzbek tilining lugʻat qatlamida ijtimoiy siyosiy terminlar salmoqli oʻrinni egallaydi. Oʻzbek tilining etimologik lugʻati¹da etimologiyasi sof oʻzbekcha

¹ Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг этимологик луғати (туркий сўзлар). – Тошкент: Университет, 2000. – 600 б.

(turkiycha) bo'lgan ijtimoiy-siyosiy terminlar juda ozchilikni tashkil qiladi (hisob-kitobimizga ko'ra ularning soni 35-40 atrofida). Bular quyidagilar:

Ajrim, ayg'oqchi, bayroq, beka, bekach, bitim, boshboshdoqlik, buyruq, yarog', yig'im, yig'in, yov, yorliq, yo'riq, yo'qlama, kengash, ocharchilik, sayla, soliq, soqchi, surgun, so'm, tamg'a, tinchlik, tuman, tutqun, xon, xoqon, chegara, elchi, erk, erkinlik, o'rda, qamal, qardosh, qo'zg'alon, qo'shin.

Ushbu leksemalarning ma'lum qismi ayni paytda iste'moldan chiqib ketgan yoki chiqib ketmoqda.

Bu juda achinarli holat. Ayni paytda tilimizda foydalanilayotgan ijtimoiy-siyosiy terminlarning ko'pchilik qismini boshqa tillardan kirib kelgan yoki morfologik va sintaktik usullar yordamida yasalgan yasalmalar tashkil qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Винокур Г.О. О некоторых явлениях словообразования в русской технической терминологии. Труды МИФЛИ. Т.%. Сборник статей по языкознанию. - М., 1961.
2. Герд А.С. Значение термина и научное знание//Научно-техническая информация. Серия 2.-М.,1991.
3. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг этимологик луғати (туркий сўзлар). – Тошкент: Университет, 2000. – 600 б.
4. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Беш жилдлик. 2-4 жилдлар. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2007-2008 й
5. Dadaboyev N. O'zbek terminologiyasi. –Toshkent: 2019
6. Шаропова Р. Ижтимоий-сиёсий терминларда тушунчавий баҳонинг ифодаланиши. //Культурология, искусствovedение и филология: современные взгляды и научные исследования. Сборник статей по материалам ХХИ международной научно-практической конференции. Москва. 2019